



MUSTAQIL TA'LIM – ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MUHIM KOMPONENTI SIFATIDA

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika Institut
magistranti

E-mail: aoynisaa@gmail.com

Omonov Zuhriddin Xusniddin o'g'li

Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi
25-maktab I toifali tarix fani o'qituvchisi,
E-mail: z0171706@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bugungi kunda Oliy ta'lismizda dolzarb muammo bo'lib kelayotgan mustaqil ta'lismi haqida so'z boradi. Mustaqil ta'lidan ko'zlangan asosiy maqsad va qadimgi allomalar qarashlari yoritildi. Bundan tashqari, mustaqil ta'lismi tashkil qilishning pedagogik shartlari o'r ganildi. Shu bilan birgalikda, talabalar hayotida mustaqil ta'larning qaydarajada muhimligi ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lismi, mustaqil ta'larning pedagogik shartlari, mustaqil fikrlash, ijod.

Kirish.

Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng kolamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib topdirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Buyuk faylasuf Konfutsiy aytgan edi: "Men nimani eshitsam – unutaman, nimani ko'rsam - xotiramda saqlayman, nimani o'zim qilsam - tushunaman". Shuning uchun ta'lismi jarayonida talabalarini faol bilishini ta'minlab beradigan, mustaqil faoliyat bilan shug'ullanishga imkon beradigan uslublarni qo'llash yaxshi natijalar beradi.

Mustaqil ta'lismi oliy ta'lismi tizimida ta'larning shunday bir shaklidirki, bunda talabalarning o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi (topshiriqlar beriladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi). Mustaqil ta'larning asosiy maqsadi - o'qituvchilarining mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tafbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Zamonaviy mutaxassisning o'z bilimi va hayotiy tajribalarini oshirib borishi unda shaxsiy xislatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq. Ana shunday xislatlarni shakllantirishda mustaqil ishlar rnuhim ahamiyat



kasb etadi. Mustaqil ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad auditoriya mashg‘ulotlarida o‘zlashlirilgan bilim va malakalarni mustahkamlash, yangilarini o‘zlashtirish va ijodiy ishslash malakasini tarkib toptirishdan iboratdir.

Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg‘ulot turi mustaqil ta’lim bilan bog‘liq bo‘ladi. Mustaqil ta’limning asosiy masalasi ham aynan bo‘lajak kasbiy ta’lim o‘qituvchilarining dars va darsdan so‘nggi faoliyati faolligini ta’min etishga yo‘naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas’uliyatni his qilishni ta’min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat.

Mustaqil ta’lim ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar hamda tajribalar zahirasi asosida amalga oshadi. O‘quv fanlarini chuqur va puxta o‘zlashtirish, ta’lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlami mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish, ilmiy-ijodiy tafakkurni boyitish, o‘quv-biluv jarayonidagi savol-javob va babs-munozaralarda faol qatnashish, o‘z fikr-mulohazasini asosli dalillar bilan bayon qilish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir talaba - bo‘lajak mutaxassis oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Demak, fikr-shaxsning faoliyat jarayonidagi bilimi, tajribasi, qobiliyati va kuch-qudratini nomoyon etadigan ma’naviy - kasbiy sifatidir.

Mustaqil ta’limni tashkil etish uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- talabalarni mustaqil ishga tayyorligi;
- olingan bilimlarni asoslash;
- barcha zarur nazariy o‘quv-uslubiy materiallarini mavjudligi hamda ularidan foydalana olish mumkinligi;
- bajarilgan mustaqil ishning sifatini muntazam nazorat tizimi;
- o‘qituvchining uslubiy yordami.

Bugungi kunda mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Ayni paytda ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning yagona konsepsiysi to‘la shakllanmagan bo‘lsada, talaba va o‘qituvchi munosabatlarini modellashtiruvchi kompyuter o‘qitish tizimi kun sayin rivojlanmoqda. Bu yo‘nalishda turli variantdagi darslik va o‘quv qo‘llanmalarni shakllantirilishi va shaxsiy kompyuterlarning imkoniyatlari ortayotgani, laboratoriya ishlari va tabiiy eksperimentlarni modellashtiruvchi dasturlarning yaratilayotgani bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Shuningdek, ayni paytda mustaqil ta’limga bo‘lgan innovatsion yondashuvlar islohotlar talabi darajasida to‘laqonli o‘z echimini topolgan emas. Talabalarning mustaqil ta’limini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan ta’lim prinsiplari, qonuniyatlar hamda uni amalga oshiruvchi inlerfaol metodlar metodikasi to‘liq modernizatsiya qilinmagan. Bu borada ilgari surilgan pedagogik g‘oyalarni generatsiyalash hamda



uni yaxlit tizim holiga keltirish muammosi hal etilmagan. G'oyalarni integratsiyasi jarayonida mustaqil ta'lif texnologiyasining o'rni hozircha pedagogik jihatdan alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Shunga ko'ra biz tomonidan olib borilayotgan tadqiqot ishining maqsadi: ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq mustaqil ta'lif texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarining erkin ijodiy tafakkuri va shunga qaratilgan pedagogik g'oyalar samaradorligini kafolatlovchi ta'lif mazmunini takomillashtirishga erishish.

Ma'lumki, mustaqil ta'lifni yo'lga qo'yishda nafaqat talablarni muayyan fan bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo'lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma'lum ma'noda global profesionallik masalasi ham o'z tasdig'ini topmog'i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabandan tezkor fikrlashni va faol haraktni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba qiziqishlar asosida o'zining diqqatini muayyan ob'ektga qarata oladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, tepada keltirilgan ma'lumotlar va qarashlar asosida mustaqil ta'lifni tashkil etish – mustaqil ta'lifning to'g'ri shakllangani uchun asos bo'la oladi. Bundan tashqari, bu orqali bo'lajak o'qituvchilar mustaqil o'z ustida doimo ishlashni, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishni, har qanday pedagogik muammolarni onsongina hal qila olishni, o'z o'quvchilariga vijdonan dars berishni o'rgan oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbanova B.N "Modern forms of organizing students independent work as a pedagogical problem" International scientific journal volume 2 issue 2 february 2023 uif-2022; 8.2| issn: 2181-3337| scientists.uz.
2. Odilova Mahfuba, Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrasi o'qituvchisi. "Oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'lif jarayonini tashkil qilishda gat texnologiyalaridan foydalanish muammolari". ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №6).
3. O.Y Mahmudova "Innovative organization of independent education of students and tools" maqolan NOVATEUR PUBLICATIONS JournaINX - ko'p tarmoqli tengdoshlar tomonidan ko'rib chiqilgan jurnal ISSN №: 2581 -4230 9-JIM, SON, mart -2023.
4. Abdurahmanova, M., & Rayimjonova, M. (2021). Korpus Lingvistikasida Tarjimashunoslik Masalasi. Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects, 1(1).



5. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). Bilingvism Turlari Va Ikkinchchi Til Leksik Bazasi. In International Scientific Conferences with Higher Educational Institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
6. Tursunaliyevna, A. M. (2022). Tilshunoslikda Kognitiv Yo'nalishlar. Fan, Ta'lim, Madaniyat Va Innovatsiya Jurnali| Journal of Science, Education, Culture and Innovation, 1(2), 113-116.
7. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022). Korpus Lingvistikasining Ahamiyati. Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects, 1(1).
8. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). Innovative methods and tools in higher education. Science and Innovation, 2(11), 708-715.
9. Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ma'ruza matni.
<http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php?id=22462>
10. Qurbanova B.N "Oliy ta'lif muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'lifni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari" Ijtimoiy boshqaruv jurnali. 2023-yil.